ProLibra

PROINFO

PROLIBRA KUTUBXONA TIZIMI

Kutubxona standartlarini qo‘llab-quvvatlash va RFID texnologiyasi bilan integratsiya.

“PROINFO” MCHJ
© 2026 PROLIBRA. BARCHA HUQUQLAR HIMOYALANGAN.

ProLibra – avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi

ProLibra kutubxona tizimi kitob berish va qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, inventarizatsiyani tezlashtirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

U veb-texnologiyalar asosida ishlaydi hamda MARC21, Z39.50, SIP2.0, LDAP, API va boshqa xalqaro standart va protokollarni qollab-quvvatlaydi.

Ushbu tizim kutubxona jarayonlarini tezlashtirish va soddalashtirish uchun yaratilgan.

Tizim universitet, maktab, ilmiy va ommaviy kutubxonalarda keng qo‘llaniladi.

Tizim nima uchun kerak?



Qog‘ozbozlikdan ozod bo‘lish

Tizim quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- Kitobxonlarga xizmat qilishni tezlashtirish;
- Xodimlar zimmasidagi yuklamani kamaytirish;
- Kitoblar yo‘qolishining oldini olish;
- Ma‘lumotlarning markazlashgan holda saqlanishi.

Statistika asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.


ProLibra – bu kutubxonani zamonaviy, shaffof va samarali boshqarish vositasi.

ProLibra kimlar uchun foydali?



Jamoat kutubxonalarga

Soddalashtirilgan kitob berish jarayoni, fond hisobi, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishni tezlashtirish uchun RFID integratsiyasi.



Kutubxona markazlari

Markazlashgan boshqaruv (administratsiyalash), ma’lumotlar replikatsiyasi (nusxalanishi), yagona katalog va filiallar bo'yicha statistika.



Ta’lim muassasalari kutubxonalari

Universitet, kollej va maktablar.

Kutubxonalar uchun asosiy afzalliklar

Ish samaradorligi

Kundalik takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish, qo‘lda kiritishning kamayishi – xizmat ko‘rsatish uchun ko‘proq vaqt.

Barcha bosqichlarda qo‘llab-quvvatlash

Loyihalashdan tortib kuzatib borishgacha – yagona xizmat ko‘rsatuvchi va mas’uliyat.


Moslashuvchanlik va kengayuvchanlik

Modulli arxitektura ehtiyojlar ortib borishi bilan funksionallikni kengaytirish imkonini beradi.


Hisob-kitob aniqligi

Buyumlarni ishonchli identifikatsiya qilish va barcha operatsiyalarni jurnalga qayd etish (loglash).


WEB interfeysli tizim



Xodim interfeysi – modullar



Kataloglashtirish



Xizmat ko‘rsatish



Kengaytirilgan qidiruv




Foydalanuvchilar bazasi



Komplektlash



Ma’nbalar



Administratsiya



Hisobotlar va statistikalar

Kataloglashtirish moduli



ProLibra tizimida kataloglashtirish xalqaro standartlar asosida amalga oshiriladi va MARC21 formatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kataloglashtirish jarayonida tizim quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Bibliografik yozuvlarni yaratish va tahrirlash;
- Kitoblar, jurnallar, dissertatsiyalar va boshqa materiallarni qo‘shish;
- Muallif, sarlavha, nashr haqidagi ma‘lumotlar va ISBN ni ko‘rsatish;
- Kalit so‘zlar va mavzu ruknlarini qo‘shish;
- Elektron fayllarni (PDF) biriktirish;
- Inventar raqamlari va shtrix-kodlarni biriktirish;
- Nusxalar soni va ularning joylashuvini ko‘rsatish.

Xizmat ko’rsatish moduli ⇅



ProLibra tizimida kitob berish, qaytarish va muddatini uzaytirishning barcha jarayonlari xizmat ko‘rsatish moduli orqali avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu kitobxonlar o‘rtasidagi nusxalar harakatini to‘liq nazorat qilish imkonini beradi.
Xizmat ko‘rsatish moduli quyidagilarga imkon beradi:

- kitoblarni berish va qaytarishni rasmiylashtirish;
- foydalanish muddatini uzaytirish;
- kitobxonlarning qarzdorligini kuzatib borish;
- muddat o‘tganligi uchun jarimalarni avtomatik hisoblash;
- ommabop nashrlar uchun kitobxonlarni navbatga qo‘yish;
- har bir foydalanuvchining kitob olish tarixini ko‘rib chiqish.

Statistika va hisobotlar


Modul quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Kitob aylanishini tahlil qiladi;
- foydalanuvchilar faolligini kuzatadi;
- eng ko‘p o‘qiladigan nashrni aniqlash;
- muddati o‘tgan nusxalarni aniqlash;
- kitob berish, qaytarish va jarimalar bo‘yicha hisobotlarni shakillantirish.

Tizim quyidagilarni qo‘llab-quvvatlaydi:

- standart hisobotlarni yaratish (generatsiya qilish);
- moslashuvchan (kastom) SQL-hisobotlarni yaratish;
- davrni tanlash (kun, oy, yil va h.k.);
- foydalanuvchilar guruhlari bo‘yicha filtrlash;
- resurs turlari bo‘yicha tahlil qilish.

Hisobotlar asoslantirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga va kutubxona ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.



Administratsiya

ProLibra tizimidagi **Administratsiya** moduli kutubxona tizimini to‘liq sozlash va boshqarish uchun mo‘ljallangan.
U foydalanuvchilarni, kirish huquqlarini, tizim ish parametrlari va integratsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi.
Administratsiya moduli quyidagilarga imkon beradi:

- xodimlarning hisob yozuvlarini (akkauntlarini) yaratish va tahrirlash;
- rollar va kirish darajalarini tayinlash;
- foydalanuvchilar guruhlarini boshqarish;
- kitob berish qoidalarini sozlash (muddatlar, jarimalar, limitlar);
- resurs turlari va fond kategoriyalarini boshqarish;
- bildirishnoma shablonlarini sozlash;
- tizim parametrlarini nazorat qilish.

Tizim quyidagilarni ta‘minlaydi:

- kirish huquqlarini tabaqalashtirish;
- ma‘lumotlar xavfsizligi;
- foydalanuvchilar harakatlari jurnalini yuritish;
- barcha modullarni markazlashgan holda boshqarish.



Foydalanuvchi interfeysi

PROINFO

Shaxsiy kabinet

Onlayn katalog

Kengaytirilgan qidiruv

Tashqi bazalar bo‘yicha qidiruv

Band qilish


Ro‘yxatlar yaratish

Tilni tanlash

Sharxlar va baholar

RFID bilan integratsiya

Biz ProLibra tizimi bilan RFID uskunalarini SIP2.0 (Standard Interface Protocol) protokoli orqali integratsiya qilishni amalga oshiramiz. Bu protokol hodisalar almashinuvini ishonchli ta‘minlaydi: tegni (metkani) o‘qish, o‘tish holati (statusi), shlyuzni ochish buyrug‘i. SIP protokoli turli RFID vodorlari (ishlab chiqaruvchilari) bilan o‘zaro aloqani universallashtirish va tranzaksiyalarni avtomatlashtirish imkonini beradi.



Serverdagi tizim

SIP protokol

RFID-uskunalar

ProLibra + RFIDning qo‘llanishi



O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish
Bir vaqtning o‘zida bir nechta kitobga bir zumda ishlov berish. Navbatlarni va xodimlar zimmasidagi yuklamani kamaytirish.



Qaytarish jarayonining avtomatlashtirish
Saralovchilar (sortirovshiklar) va konveyerlar ProLibra tizimidan buyruqlarni qabul qiladi, bu esa kitoblarni qabul qilishda qo‘l mehnatini va xatoliklarni kamaytiradi.



Chiqishni nazorat qilish
Rasmiylashtirilmagan hujjatni olib chiqib ketishga urinishda avtomatik ravishda ogohlantirish. Tizimda ko‘ngilsiz hodisalarni (insidentlarni) jurnalga qayd etish (loglash).



Inventarizatsiya
Ko‘chma skanerlar yordamida javonlarni tezkor tekshirish; inventarizatsiya aniqligi oshadi, unga sarflanadigan vaqt esa bir necha barobarga qisqaradi.

Xodimlarni o‘qitish

Ishchi rollariga yo‘naltirilgan amaliy o‘quv dasturi:

- Administratorlar: huquqlarni sozlash, zaxira nusxalarini yaratish (bekapi), yangilanishlar va integratsiyalar.
- Kataloglashtiruvchilar: MARC formatida ishlash, ommaviy operatsiyalar, ma‘lumotlar sifati.
- Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish: kitob berish/qaytarish ssenariylari, RFID terminallari bilan ishlash.
- IT-xodimlar: serverni o‘rnatish, monitoring, ulanishlar xavfsizligi.

Format: aralash mashg‘ulotlar – nazariya + amaliy keyslar, masofaviy yoki joyning o‘zida (offlayn).



Joriy etish rejasi – bosqichlar ⇄

PROINFO

1

Audit va talablar

1–2 hafta: infratuzilmani, fond hajmini, jarayonlar va uskunalarni tahlil qilish.

2

Sozlash va kastomizatsiya

1–2 hafta: ProLibra tizimini o‘rnatish, umumiy parametrlarni sozlash.

3

RFID integratsiyasi

1 hafta: SIP shlyuzini sozlash, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish stansiyalari va inventarizatsiya skanerlarini (agar mavjud bo‘lsa) konfiguratsiya qilish.

4

O‘qitish va ishga tushirish

2–4 hafta: asosiy xodimlarni o‘qitish, bitta bo‘lim yoki filialda sinov tariqasida ishlatib ko‘rish.

5

Texnik qo‘llab-quvvatlash

Shartnoma bo‘yicha yillik qo‘llab-quvvatlash, monitoring va takomillashtirish ishlari.

Texnik talablar

Komponent	Minimum	Tavsiya etiladi
Server	4 CPU, 8 GB RAM, 200 GB SSD	8 CPU, 32 GB RAM, 1 TB NVMe
Tarmoq	1 Gbps LAN, statik IP	1 Gbps yoki RFID trafiki uchun VLAN, zaxira kanali
Operatsion tizim	Ubuntu Server stable vesion	Ubuntu Server stable vesion
Serverga kirish	ssh-orqali	ssh-orqali

Yillik texnik qo‘llab-quvvatlash



Baza paketi

Masofaviy qo‘llab-quvvatlash, kritik xatolarni tuzatish, oylik yangilanishlar.

Premium

Kafolatlangan javob vaqti bilan texnik qo‘llab-quvvatlash, zarurat bo‘lganda mutaxassisning tashrifi va tizimni takomillashtirish

Birinchi qadam– qanday boshlash kerak!



1. PROINFO mutaxassislaridan infratuzilma auditini so‘rang.
2. Batafsil reja va smeta asosida tijorat taklifini oling.
3. Shartnomani imzolang, mas’ul shaxslarni tayinlang – biz joriy etishni boshlaymiz.

Kontaktlar

PROINFO kompaniyasi - ProLibra tizimini joriy etish.
Namoyish, audit va tijorat taklifini so‘rash uchun:

Elektron pochta: info@proinfo.uz
Telefon: +998 (77) 079-66-00
Sayt: www.proinfo.uz

Kutubxonangizni raqamlashtirishni biz bilan birga boshlang!